

UDK 616.72-002.77:616.36-003.826:577.213.3:616-07

REVMATOID ARTRIT VA JIGARNING NOALKOGOL YOG‘ XASTALIGI BILAN OG‘RIGAN BEMORLARNI ERTA TASHXISLASHDA MIKRORNK-122/221 IFODASI

Karimov M.Sh., Shukurova F.N., Normatova K.Sh.
Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
Tel.: +998881381030, e-mail: fazilatshukurova@gmail.com

Kirish. Jigarning noalkogol yog‘ xastaligi (JNAYoX) revmatoid artrit (RA) bilan hamroh kechganda jiddiy asoratlar — jigar to‘qimasida fibrotik o‘zgarishlar rivojlanish xavfi ortadi. Bunda xolesterin va lipid metabolizmini tartibga soluvchi genlar regulyatsiyasida mikroRNK-122 va mikroRNK-221 ifoda darajalarining muhim patogenetik ahamiyati mavjud.

Material va usullar. RA da JNAYoX tarqalishini baholash maqsadida 346 nafar stasionar va ambulator bemorlar orasidan komorbid fonli bemorlar ajratib olinib, 148 nafar bemor tadqiqotning asosiy guruhiga kiritildi. Ushbu guruhda ultratovush tekshiruv turli yosh va jins guruhlarida o‘tkazildi. Natijada jigarning yog‘li distrofik o‘zgarishlari aniqlangan bemorlar RA va JNAYoX bilan og‘riganlar sifatida shakllantirildi. Keng qamrovli tekshiruv uchun 46 nafar bemor tanlab olinib, mikroRNK-122 va mikroRNK-221 ifoda darajalari aniqlanib, ularning patogenetik ahamiyati tahlil qilindi.

Natijalar. Tadqiqotda qon zardobidagi mikroRNK ifodalarini baholashda kodlanmaydigan kichik yadroli RNK U6 (snRNA) asosida olingan endogen nazorat ko‘rsatkichlari barcha namunalarda barqaror va o‘xshash ifodalandi. Bemorlar va nazorat guruhidagi amaliy sog‘lom shaxslar o‘rtasida ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli farq aniqlanmadi.

Biroq mikroRNK-122 va mikroRNK-221 ning o‘rtacha qiymatlari ($2 \text{ Ct} \times 100$) bemorlar va nazorat guruhlari o‘rtasida sezilarli farq qildi ($r=0,001$). 30 ta (65,2%) namunada mikroRNK-122 va mikroRNK-221 ifodasi (minimal, o‘rtacha yuqori va yuqori darajalarda) oshgani aniqlandi.

RA va JNAYoX bilan og‘rigan bemorlarning demografik ma‘lumotlari hamda klinik-biokimyoviy ko‘rsatkichlari bilan mikroRNK ifoda darajalari o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinganda, mikroRNK-122 va mikroRNK-221 ifodasi yosh va jinsga bog‘liq emasligi, ammo tana vazni ko‘rsatkichlari bilan bog‘liqligi aniqlanadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, bemorlarning 25 nafarida tana vazni indeksi (TVI) 25–29,9 kg/m² (ortiqcha vazn), 6 nafarida esa TVI 30–35 kg/m² (yengil darajadagi semizlik) aniqlangan. Qon zardobida aylanib yuruvchi mikroRNK-122 ifoda darajasi TVI bilan teskari bog‘liqlik ko‘rsatdi: yengil ortiqcha vaznli bemorlarda maksimal ifoda (12,43 baravar), TVI oshishi bilan esa ifoda kamayishi (o‘rtacha semizlikda 3,32 baravar) kuzatildi.

RA va JNAYoX bilan og‘rigan bemorlarda mikroRNK-122 ifoda darajasi plazmadagi triglitseridlar (TG) va past zichlikdagi lipoproteidlar (ZJPLP, xolesterin) bilan ijobiy korrelyatsiyani ko‘rsatdi. Umumiy xolesterin, ZPLP, ZYuLP, qondagi glyukoza darajasi va jigar fermentlari bilan bog‘liqlik sezilarli emas edi.

Shuningdek, mikroRNK-221 ifodasi mikroRNK-122 ga nisbatan teskari tendensiyani namoyon etdi. Ushbu mikroRNKlar TG va ZJPLP darajalari bilan ijobiy bog‘liqlik ko‘rsatdi.

Xulosa. Mazkur murakkab komorbid kasalliklarning klinik kechishi va asoratlarini prognoz qilishda mikroRNKlarning ahamiyatini to‘liq baholash uchun keng ko‘lamli tadqiqotlar zarur. Shu bilan birga, olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, zardobdagi mikroRNK-122 va mikroRNK-221 ifoda darajalari RA va JNAYoX bilan og‘rigan bemorlarda kasallikning og‘irlashuvi hamda hayot sifatiga ta‘sir etuvchi asoratlarni oldindan baholashda potensial biomarker sifatida qo‘llanilishi mumkin.